

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat pedagogika instituti
rektori

Sh.Sh.Negmatova

2026-yil



Samarqand davlat pedagogika institutining Ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi to'g'risidagi N I Z O M I

Mazkur Nizom (keyingi o'rinlarda — Nizom deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi “Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi 76-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi “O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdik, kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyadan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida”gi 498-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 6-martdagi “Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari boshqaruv tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi 95-son buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi “Davlat oliy ta'lim muassasalarida Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi 72-son buyrug'i talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur nizom Samarqand davlat pedagogika institutining Ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi maqomi, asosiy maqsadi, vazifalari, huquqlari va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Samarqand davlat pedagogika institutining (keyingi o'rinlarda — Institut deb ataladi) Ta'lim sifatini ta'minlash nazorati bo'limi (keyingi o'rinlarda — Bo'lim deb ataladi) institut tuzilmasiga kiradi.

2. Bo'lim nizomi yuqoridagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi “Davlat oliy ta'lim muassasalarida Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi 72-son buyrug'i talablariga muvofiq ishlab chiqiladi, institut rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va nusxasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash

milliy agentligiga, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim etiladi.

Belgilangan tartibda tasdiqlangan institut bo'limining Nizomi bo'lim xodimlari tomonidan o'ziga yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun normativ hujjat hisoblanadi.

3. Bo'limning asosiy maqsadi institut talabalari bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganib borish, tahlil qilish, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish, institutni ichki attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va uning natijalari bo'yicha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish va oldini olish choralarini ko'rishdan iborat.

4. Bo'lim o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hamda institut rektorining buyruqlari va qonuniy ko'rsatmalariga, shuningdek, bo'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq olib boradi.

Bo'lim amalga oshirilgan ishlar, muammolar va kamchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga va institut rektoriga taqdim etadi.

2-bob. Bo'limning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

institutda kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringini olib borish;

talabalar bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarning fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganib borish va tahlil qilish;

ta'lim sifatini ta'minlay oladigan professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, jumladan, salohiyatli o'qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati va malakasini oshirish imkonini beradigan (obyektiv) shaffof tashkiliy mexanizmlarni yaratish;

professor-o'qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish; institutni ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

o'quv jarayonining normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to'g'ri tashkil etilganligi va Hemis tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);

malaka talablari, o'quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini

tahlil qilish;

bitiruvchi talabalarning kadrlar bozorida o'zni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakllantirish;

o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo'lga qo'yilganligini o'rganib borish;

dars o'tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o'rganib borish;

talabalar bilimni nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta'minlanganligi bo'yicha ko'rilgan choralar samaradorligini aniqlash;

professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o'rganish;

professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish;

axborot-resurs markazida talaba va o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo'yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o'rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish;

mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilishini o'rganish va tahlil qilish (yo'riqnoma yoki uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta'limni tashkil etish uchun talablarning qo'yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta'minlash);

institutda plagiatga qarshi dasturlarni joriy etilishini ta'minlash jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko'chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish);

Agentlikning topshirig'iga muvofiq, boshqa oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganishda ishtirok etish;

institut professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qilish yoki ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganish va xulosalarni institut rektoriga ma'lum qilish;

ta'lim jarayoni moddiy-texnik bazasi holatini tahlil qilish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

institutda talabalar amaliyotining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olgan holda tashkil etilganligi va uning samarasini nazorat qilish;

institut tegishli tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan hamda o'quv seminarlari va treninglarni o'tkazish.

6. Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Institutda kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qiladi va monitoringini olib boradi;

talabalar bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarning fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganib boradi va tahlil qiladi;

ta'lim sifatini ta'minlay oladigan professor-o'qituvchilar tarkibini

shakllantirish, jumladan salohiyatli o'qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati va malakasini oshirish imkonini beradigan (obyektiv) shaffof tashkiliy mexanizmlarni yaratishda ishtirok etadi;

professor-o'qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qiladi;

institutni ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi;

o'quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to'g'ri tashkil etilganligi va Hemis tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib boradi (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);

malaka talablari, o'quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qiladi;

bitiruvchi talabalarning kadrlar bozoridagi o'rni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakllantiradi;

o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo'lga qo'yilganligini o'rganib boradi;

dars o'tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o'rganib boradi;

talabalar bilimni nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta'minlaganligi bo'yicha ko'rilgan choralar samaradorligini aniqlaydi;

professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o'rganadi;

professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qiladi;

axborot-resurs markazida talaba va o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo'yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o'rganib boradi va rahbariyatga takliflar kiritadi;

mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilishini o'rganadi va tahlil qiladi (yo'riqnoma yoki uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta'limni tashkil etish uchun talabalar qo'yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta'minlaydi);

oliy ta'lim muassasalarida plagiatga qarshi dasturlarni joriy etilishini ta'minlaydi (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko'chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish);

Agentlikning topshirig'iga muvofiq, boshqa oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganishda ishtirok etadi;

institut professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qiladi yoki ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganadi va ma'lumotlarni tegishli chora-tadbirlar belgilash uchun institut rektoriga taqdim etadi;

institut tarkibiy tuzilmalarining zamonaviy moddiy-texnik ta'minoti, o'quv-

laboratoriya jihozlari, kompyuterlar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish darajasini tahlil qiladi;

ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati muammolari bo'yicha xalqaro konferensiyalar, anjumanlar, simpoziumlar, seminar va o'quvlarda ishtirok etadi;

yakuniy davlat attestatsiyalarini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilgan holda o'tkazilganligini va uning natijalarini tahlil qiladi.

3-bob. Bo'limning huquq va majburiyatlari

7. Bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

bo'lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun institut tarkibiy tuzilmalaridan vazifalari doirasidagi zarur ma'lumotlar va materiallarni olish;

institut attestatsiyasi natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish;

institutda ta'lim sifatiga oid qabul qilingan qarorlarning yetarli darajada ijrosi ta'minlanmaganligi aniqlanganda, ma'lumotlarni institut rektoriga kiritish;

belgilangan tartibda institut Kengashida saylash va saylanish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan huquqlardan xizmat vazifasi doirasida foydalanish.

8. Bo'lim quyidagi majburiyatlarga ega:

xizmat vazifalarini vijdonan bajaradi;

institut rektori va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim etiladigan ma'lumotlarning haqqoniyligiga javob beradi.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi 12-sonli "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ijro intizomiga, o'quv va mehnat intizomiga, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalar, institutning ustavi, ichki tartib hamda odob-axloq qoidalariga rioya etadi.

4-bob. Bo'lim ishini tashkil etish

10. Bo'lim rahbar-xodimlari lavozimga nomzodlarni agentlik bilan kelishilgan holda institut rektori buyrug'i bilan tayinlanadi va ozod etiladi.

11. Institutning tashkiliy tuzilmasida Ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi bevosita institut rektoriga bo'ysunishi va mazkur bo'lim faoliyatiga prorektor, dekan va tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

12. Bo'limga zamonaviy bilimlarni egallagan, ilmiy salohiyatga ega va ta'lim tizimini rivojlantirishda o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan shaxslar tarkibidan malakaviy talablarga muvofiq belgilangan tartibda ishga qabul qilinadi.

5-bob. Bo‘lim xodimlarining malaka talablari

13. Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga quyidagi malaka talablari qo‘yiladi:

oliy ma‘lumotli va ilmiy darajaga ega bo‘lishi;

ta‘lim sohasiga oid qonun hujjatlarini, asosiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi;

ta‘lim muassasalaridagi pedagogik va ta‘lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta‘lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo‘lishi;

institutning tarkibiy bo‘linmalari faoliyati xususiyatlarini bilishi;

ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo‘lishi;

o‘quv, ilmiy-tadqiqot va ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunishi, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va ularga Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining grifini olish tarkibini bilishi;

institut professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini bilishi;

o‘zbek, rus tillarini va xorijiy tillardan birini mukammal bilishi (shtat birligini shakllantirishda xodimning xorijda malaka oshirganligini inobatga olish maqsadga muvofiq);

ish faoliyatida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

14. Bo‘lim bosh mutaxassisi lavozimiga quyidagi malaka talablari qo‘yiladi: oliy ma‘lumotli, ta‘lim sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik jihatidan) ega bo‘lishi;

ta‘lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi;

pedagogik va ta‘lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta‘lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo‘lishi;

ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo‘lishi;

o‘quv, ilmiy-tadqiqot va ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini tushunishi, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini tayyorlashga qo‘yilgan talablarni bilishi;

o‘zbek tilini mukammal, rus va xorijiy tillardan birini yetarli darajada bilishi (shtat birligini shakllantirishda xodimning xorijda malaka oshirganligini inobatga olish maqsadga muvofiq);

ish jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

15. Bo‘lim faoliyatiga oid nizolar, o‘zaro munozaralar olib borish orqali yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

16. Mazkur Nizomni bekor qilish yoki unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini ta‘minlash milliy agentligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va/yoki Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.